

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2020-yilning yanvar–iyun oylarida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 40 797,7 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar–iyun holati bilan taqqoslaganda 0,5 % ga kamaydi. YaHM deflyator indeksi 2019-yil yanvar–iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 111,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 16,0 % ga yetdi.



Yanvar–iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		2019- yil yanvar– iyuniga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar– iyun	2020- yil yanvar– iyun	
I. YaHM	36 787,3	40 797,7	99,5	
<i>shu jumladan:</i>				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	32 526,1	36 897,1	99,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4 261,2	3 900,6	99,3
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	32 526,1	36 897,1	99,6
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	15 484,2	17 328,2	99,3
	sanoat	12 111,0	13 626,0	98,8
	qurilish	3 373,2	3 702,2	101,2
	Xizmatlar	17 041,9	19 568,9	99,8

		Mlrd. so'm		2019- yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 569,8	6 536,7	100,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4 222,4	4 571,8	101,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	7 249,7	8 460,4	98,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 15 708,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan -3,3 % ga kamaygan.



Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari

2019- yil

14 576,2

5,7

2020- yil

15 708,3

-3,3



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi
(ming so'm)

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 90,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,6 % ini tashkil etdi.

Sanoat tarmog'ining ulushi 36,9 % dan iborat bo`lib, 0,3 % ga kamaydi, qurilish esa 0,4 % punktga kamaydi va 10,0 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 53,1 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,7 % punktga o'sdi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	88,4	90,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	11,6	9,6
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	47,6	46,9
	sanoat	37,2	36,9
	qurilish	10,4	10,0
	Xizmatlar	52,4	53,1
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	17,1	17,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	13,0	12,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	22,3	23,0



**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**





O'sish sur'ati qurilishda – 101,2 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 10,0 %)ni tashkil etdi. Shuningdek, 2019-yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda sanoat tarmog'i (98,8 %) va xizmatlar sohasida (99,8 %) ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmining solishtirma narxlarda kamayishi kuzatildi. Mazkur tarmoqlarning YaHM tarkibidagi ulushi mos ravishda 36,9 % va 53,1 % tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 100,6 % (17,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 101,0 % (12,4 %)dan iborat bo'ldi. Shuningdek, boshqa xizmat tarmoqlarida esa kamayish

kuzatildi va 98,5 % ni tashkil etdi (mazkur tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi - 23,0 %).



Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiyotning qurilish tarmog'i YaHMning o'sishiga 0,1 % f.p. ijobjiy hissa qo'shdi. Sanoat tarmog'i va xizmatlar sohasi mos ravishda - 0,4 f.p. va - 0,1 f.p. salbiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning kamayishi hisobiga YaHM - 0,1 f.p. ga kamaydi.



2020-yil yanvar-iyun oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



2020-yil yanvar-iyun oylarida YaHM deflyatori indeksi 2019-yil yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 111,4 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 115,1 % va sanoatda – 113,9 % qayd etildi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

